

## Majolis un-Nafois (II- qism)

*Alisher Navoiy*

### YETTINCHI MAJLIS

---

Salotini izom va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xub bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xubdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub va marg'ubdur

Muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni:

**Temur Ko'ragon**<sup>(1)</sup> — agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor. Tabarruk haysiyatidinkim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo'lg'ay va ul latoyifdin biri bila ixtisor qushilur. Mundoq naql qilurlarkim, chun Tabrizda Mironshoh Mirzo<sup>(2)</sup> chog'irg'a ko'p ishtig'ol ko'rguzdi. Dimog'i va mizoji e'tidol tariqidin inhirof topib, andin nomuloyim amr ko'p surat tuta boshladi.

Samarqandda ul hazrat arzig'a bu nav' yetkurdilarkim, uch nadimi borkim, mufrif chog'ir ichmakka bois alardurlar. Hukm bo'ldikim, tavochi miqdor bila chopib borib uchalasining boshin keltursun. Alardin biri Xoja Abdulqodir erdi va yana biri Mavlono Muhammad Koxin erdi va yana biri Ustod Qutb Noyi erdi. Tavochi bo-rib ikkisini yasoqqa yetqurdi. Ammo Xoja Abdulqodir qochib qalandar bo'lub, o'zin devonaliqqa solib mulkdinmulkka mutavori yurur erdi, to ulkim, ul hazrat yana Iroq yurushi qildi. Ul mamolikda Xojaning ul holi ba'zig'a ma'lum bo'lub, yuqori arz qildilar. Hukm bo'ldikim, tutub keltursunlar. Ul hazrat taxtda erdilarkim, Xojai faqirni devonaliqqa qo'ymay, sudrab taxt ilayiga kelturdilar. Andin burunkim, siyosat hukm bo'lg'ay, chun Xojaning kamolotidin biri qur'on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un bila qur'on o'qumoq bunyod qildikim, ul hazratning g'azabi lutfqa mubaddal bo'lub, fazl va kamol ahli sori boqib, bu misra'ni ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi biym chang bar mushaf zad<sup>(3)</sup>.

Andin so'ngra Xojag'a iltifot va tarbiyatlar qilib, o'z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar balki qarlarda mundoq latif so'z voqe' bo'lmas. To olam ahli bilg'aylarkim, Sulton sohibqirong'akim, majolisda paydar-pay xub abyot va yaxshi so'zlar darmahal voqe' bo'lur dag'i. mavrusiydurkim, nisbatin ul jaddi buzurgvorg'a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va bu biri jahon mulkida jovidon bo'lsun!

**Xoqoni Said Shohrux Mirzo**<sup>(4)</sup> kim, avlodi vaamjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo'ldi. Ham nazmg'a mashg'ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so'zlar